



“GEOSIYOSIY RAQOBAT: MARKAZIY OSIYO KELAJAGI KIMNING QO‘LIDA?”

Asadov Farrux Ilyos o‘g‘li

Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti

XM fakulteti 2-kurs talabasi

E-mail: farrux2140@icloud.com

Abstrakt. Bugungi global siyosiy muhitda Markaziy Osiyo mintaqasi yana diqqat markaziga qaytmoqda. Tarixda "Buyuk O‘yin" deb nom olgan geosiyosiy raqobat zamonaviy shaklda tiklanib, bu safar ko‘proq ishtirokchilar va murakkabroq manfaatlar bilan yuzaga chiqmoqda. Xitoy, Rossiya, AQSh, Turkiya, Hindiston va boshqa yirik geosiyosiy aktyorlar Markaziy Osiyoda o‘z ta‘sirini kuchaytirishga urinmoqda. Bu raqobat nafaqat harbiy va diplomatik vositalar, balki iqtisodiy, madaniy va texnologik sohalarni ham o‘z ichiga olgan kompleks jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu maqolada geosiyosiy kuchlar o‘rtasidagi raqobatning zamonaviy ko‘rinishlari, ularning Markaziy Osiyo davlatlariga, xususan, O‘zbekistonning tashqi siyosatiga ta‘siri tahlil qilinadi. Xitoyning “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi, AQShning xavfsizlik hamkorligi va inson huquqlariga asoslangan yondashuvi mintaqaning suvereniteti, xavfsizligi va rivojlanishiga qanday ta‘sir ko‘rsatayotgani savol ostiga olinadi. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonning ushbu murakkab muhitda qanday strategik pozitsiyani egallayotgani, qanday siyosiy muvozanat saqlashga harakat qilayotgani ham chuqur tahlil qilinadi. Neytralitet va pragmatik tashqi siyosat o‘rtasidagi muvozanat, ko‘p vektorli hamkorlik, va mintaqaviy integratsiyaga bo‘lgan intilishlar asosida O‘zbekiston o‘z manfaatlarini himoya qilishga harakat qilmoqda. Maqolaning asosiy maqsadi – geosiyosiy kuchlarning mintaqadagi harakatlarini



tahlil qilish va ularning oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va imkoniyatlarni aniqlashdan iborat. Shuningdek, maqola orqali Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa O'zbekiston, qanday qilib geosiyosiy bosim ostida o'z mustaqilligini saqlab qolish va barqaror taraqqiyot yo'lini tanlash imkoniyatiga ega ekani ko'rsatib beriladi.

Kirish so'zlar. *Geosiyosiy raqobat, Markaziy Osiyo, Bir kamar-bir yo'l, C5+1 Format, Neytralitet siyosati, Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT), Yevropa Ittifoqi, Harbiy bazalar.*

Kirish.

XXI asr global siyosatida geostrategic muvozanat tez o'zgarib turgan dinamik jarayon hisoblanadi. Markaziy Osiyo qadimiy buyuk ipak yo'lining markazi bo'lganligi, boy tabiiy resurslarga ega ekanligi va Yevrosiyaning markaziy qismida joylashganligi sababli, tarixan dunyo kuchlari uchun muhim raqobat maydoniga aylangan. Bugungi kunda ham AQSH, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Yevropa Ittifoqi va boshqa regional kuchlarning geosiyosiy manfaatlari to'qnashuviga guvoh bo'lmoqda. Markaziy Osiyo nafaqat neft, gaz, oltin, uran va nodir yer resurslari bilan boy, balki Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi, Shimoliy-Janubiy transport yo'llari va Afg'onistondagi barqarorlik masalalari tufayli ham global kuchlar uchun ahamiyatli bo'lib kelmoqda. Mintaqa geografik jihatdan Rossiya, Xitoy, Eron va musulmon dunyosi o'rtasida joylashganligi sababli, u yerda sodir bo'layotgan har qanday siyosiy o'zgarishlar butun Yevrosiyo xavfsizligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Rossiya - Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin ham mintaqadagi an'anaviy ta'sirini saqlab kelmoqda. Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti



(KXShT) va Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YII) orqali iqtisodiy va harbiy hamkorlikni rivojlantirmoqda. Xitoy - "Bir kamar, bir yo'l" loyihasi doirasida Markaziy Osiyoga milliardlab dollar sarmoya kiritib, transport-infratuzilma va energetika sohalarida o'z mavqeini mustahkamlamoqda. AQSH va G'arb - Afg'onistondagi urush tugaganidan keyin ham mintaqada demokratik islohotlar, inson huquqlari va xavfsizlik hamkorligi dasturlarini qo'llab-quvvatlamoda. Turkiya va Islom dunyosi - Madaniy va tarixiy aloqalar asosida mintaqada davlatlari bilan munosabatlarni mustahkamlamoqda. O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston kabi davlatlar mustaqil siyosat olib borishga intilmoqda. Ular ham Rossiya bilan harbiy, ham Xitoy bilan iqtisodiy, ham G'arb bilan siyosiy hamkorlikni muvozanatli yo'lga qo'yishga harakat qilmoqda. Biroq, kuchli qo'shni davlatlarning bosimi va ichki siyosiy barqarorlik muammolari tufayli mustaqil qarorlar qabul qilish qiyin kechmoqda.

Markaziy Osiyoning tarixiy va geostrategik mavqei.

Markaziy Osiyo – bu mintaqada geografik jihatdan Osiyo qit'asining markaziy qismida joylashgan bo'lib, bevosita Yevrosiyo qit'asining “yuragi” sifatida baholanadi. Mintaqaga O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston kiradi. Geografik joylashuvi sababli u tarixan Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Uzoq Sharq davlatlarini bog'lovchi asosiy geostrategik mintaqalardan biri hisoblanadi¹. Tabiiy resurslar nuqtayi nazaridan, Markaziy Osiyo **global neft va gaz zaxiralarining qariyb 5-7 foiziga**, uran, oltin, paxta, suv zaxiralarining esa katta qismini tashkil etadi. Ayniqsa, **Qozog'iston uran eksporti bo'yicha jahonda yetakchi o'rinda** turadi (2023-yil holatiga ko'ra global uran eksportining 40% dan ortig'i)². Mintaqaning madaniy xilma-xilligi esa uni sivilizatsiyalar chorrahasi sifatida belgilaydi. Turk, eroniy, slavyan, arab va mo'g'ul

¹ <https://en.unesco.org/silkroad/countries-alongside-silk-road-routes/central-asia>

² <https://world-nuclear.org/>



madaniy qatlamlari bu yerda birlashgan. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo tarixda ko'plab imperiyalarning ajralmas qismi hisoblangan. Bularga misol qilib, Baqtriya, So'g'diyona, Kushonlar imperiyasi, Arab xalifaligi va Temuriylar davlati kabi davlatlarning siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatida muhim o'rinni egallagan³. Baqtriya davlati miloddan avvalgi IV asrdagi eng katta madaniy markazlardan biri hisoblanadi. So'g'diyona esa savdo, til va diplomatiya markazi hisoblangan, ayniqsa Ipak yo'li davrida eng muhim markazlardan biri hisoblangan⁴. Arab xalifaligi davrida Xorazm, Buxoro, Samarqand kabi Markaziy Osiyodagi shaharlar ilm-fan markazlari bo'lgan (IX-XII asrlar). Temuriylar davrida esa Markaziy Osiyoda harbiy va ilmiy yuksalish davri hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'li bu mintaqani Xitoydan Vizantiyagacha savdo yo'li sifatida birlashtirdi. Savdo bilan birga ilm-fan, falsafa, tibbiyot, astronomiya, san'at ham almashildi.

1920-yillardan boshlab Sovet Ittifoqi Markaziy Osiyoni o'zining iqtisodiy va harbiy strategik bazasiga aylantirdi. O'zbekiston va Turkmaniston mamlakatlari paxta yetishtirish bo'yicha yetakchi o'rinlarda turardi. Shuning uchun ham ushbu ikkita mamlakatni Sovet Ittifoqi o'zining paxta plantatsiyalariga aylantirdi. Bundan tashqari Sovet Ittifoqi Markaziy Osiyodagi ko'plab shaharlarni o'zining sanoat bazalariga aylantirdi. Toshkent, Olmaota va Bishkek kabi shaharlarni o'zining yirik sanoat bazasiga aylantirdi. Sovet Ittifoqi Markaziy Osiyoda o'zining harbiy bazalarini ham yaratdi. Kosmodrom (Baykonur), uran konlari, yadro poligonlari (Semipalatinsk) kabi o'zining yirik harbiy bazalarini yaratadi⁵. Shuningdek, Sovet siyosati orqali mahalliy elitalar zaiflashtirilib, ruslashtirish siyosati kuchaydi. Bu davrda mintaqaning tashqi aloqalari deyarli yo'q edi, u geosiyosiy jihatdan yopiq zonaga aylandi.

³ <https://press.princeton.edu/books/hardcover/9780691135892/empires-of-the-silk-road>

⁴ <https://www.britannica.com/place/Sogdiana>

⁵ <https://press.princeton.edu/books/hardcover/9780691161396/central-asia>



1991-yilda mustaqillik e'lon qilinganidan so'ng, Markaziy Osiyo xalqaro maydonga qaytdi. Rossiya mintaqani o'zining yaqin chet el mintaqasi deb atab, siyosiy va harbiy ta'sirini saqlab qolishga intildi. AQSH Afg'oniston urushi davrida (2001-yildan boshlab) harbiy bazalar orqali mintaqada ishtirok etdi. (Masalan, O'zbekiston- Qarshi- Xonobod). Xitoy energetika va transport tarmoqlariga sarmoya kiritdi, gaz quvurlari qurdi. (Turkmaniston-Xitoy) qurildi. Mintaqa o'zining tabiiy boyliklari (masalan, Turkmanistonning Galkinish gaz koni) bilan xalqaro bozor e'tiboriga tushdi⁶. Hozirgi kunda mintaqa xalqaro tashkilotlar orqali strategik pozitsiyasini mustahkamlashga harakat qilmoqda. **SCO (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti)** – xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik, ayniqsa Xitoy va Rossiya bilan. **EAEU (Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi)** – Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston a'zo. **C5+1 Format** – AQSH bilan xavfsizlik, atrof-muhit, ta'lim va iqtisodiy hamkorlik yo'nalishida muloqot. Shuningdek, O'zbekiston va Qozog'iston Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya bilan ham iqtisodiy sherikliklarni rivojlantirmoqda⁷.

Rossiyaning mintaqadagi harbiy-siyosiy ta'siri.

Rossiyaning Markaziy Osiyodagi ta'siri XIX asrning o'rtalaridan boshlab shakllangan. 1860–1885-yillarda Rossiya imperiyasi Xiva, Qo'qon va Buxoro xonliklarini bosib olib, mintaqani o'z imperatorligi tarkibiga qo'shdi. Bu harakatlar ikki yirik imperiyaning – Rossiya va Britaniya o'rtasidagi **“Buyuk O'yin” (The Great Game)** deb ataluvchi geosiyosiy raqobatning asosiy sahnasiga aylandi. Sovet Ittifoqi davrida Markaziy Osiyo ittifoqdosh respublikalarga aylantirilib, mintaqa Moskvaga to'liq bo'ysundirilgan holda boshqarilgan. Shu sababli, Rossiyaning ta'siri mustaqillikdan so'ng ham chuqur ildiz otgan. 1991-yilgi Sovet Ittifoqi parchalanishidan so'ng Rossiya o'zining “yaqin chet el” (ближнее зарубежье) deb

⁶ <https://www.bp.com/>

⁷ <https://carnegieendowment.org/2021/05/17/cooperation-and-competition-in-central-asia-pub-84439>



atalgan hududlarda, jumladan Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini saqlab qolishga urinib keldi. Bunga sabab qilib ko'plab narsalarni olishimiz mumkin. Masalan, hozirgi kunda rus tilidan Markaziy Osiyo davlatlarining ko'pchiligida rasmiy joylarda ham foydalanib kelishmoqda. Rus tilidan eng ko'p foydalanadigan davlatlar Qozog'iston va Qirg'izistonni olishimiz mumkin. Bundan tashqari migratsiya siyosatini ham olishimiz mumkin. Chunki hozirda Rossiyada ko'plab o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq kabi migrantlar ishlab kelmoqda. Bu Rossiya iqtisodiyoti va siyosatiga ko'plab ta'sir o'tkazishi mumkin. Rossiya, ayniqsa, siyosiy barqarorlikni saqlash va G'arb ta'siriga qarshi turish bahonasida, Markaziy Osiyodagi avtoritar hukumatlarga diplomatik va xavfsizlik sohalarida ko'mak bermoqda.

Rossiya mintaqada o'z harbiy ta'sirini saqlash maqsadida turli vositalardan foydalanmoqda. Mintaqada o'z ta'sirini saqlash maqsadida Markaziy Osiyoga o'zining ko'plab harbiy ba'zalarini o'rnatish orqali va Markaziy Osiyo davlatlari bilan harbiy hamkorliklar qilgan. Rossiyaning Markaziy Osiyodagi harbiy mavjudligi asosan ikkita asosiy bazada namoyon bo'ladi. Birinchisi, Tojikistondagi 201- harbiy bazadir. Bu baza MDH mamlakatlaridagi eng yirik Rossiya harbiy obyekti hisoblanadi. Bazada 7000 dan ortiq Rossiya askarlari joylashgan bo'lib, ular asosan Afg'oniston chegarasini nazorat qilish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash vazifalarini bajaradilar. Baza 2004-yilda tashkil etilgan bo'lib, 2022-yilda yana 25 yilga uzaytirilgan shartnoma imzolangan. Bu shartnoma Rossiyaga 2047-yilgacha bu bazadan foydalanish imkoniyatini beradi⁸. Ikkinchi muhim baza Qirg'izistondagi Kant havo bazasidir. Bishkekdan 20 kilometr uzoqlikda joylashgan bu baza Rossiya harbiy-havo kuchlarining Markaziy Osiyodagi asosiy nuqtalaridan biridir. Bazada Rossiyaning 5ta zamonaviy samolyoti joylashgan bo'lib, ular

⁸ <https://ria.ru/20221016/baza-1824298945.html>



mintaqada havo hujumidan mudofaa vazifasini bajaradilar. Baza 2003-yilda ochilgan bo'lib, 2012-yilda keng qamrovli modernizatsiyadan o'tgan⁹.

Rossiya mintaqada harbiy ta'sirini mustahkamlash uchun bir qator tashkilotlar va shartnomalardan foydalanadi. Ularning eng muhimi Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT) hisoblanadi. Bu tashkilot Rossiya, Qirg'iziston, Tojikiston, Belarus va Armanistonni o'z ichiga oladi. Tashkilotning asosiy maqsadi a'zo davlatlarni tashqi tahdidlardan himoya qilishdan iborat. KXShTning amaliy faoliyatining eng yorqin misoli 2022-yil yanvar oyida Qozog'istonda bo'lgan voqealar paytida ko'rinib berdi. Norozilik namoyishlari paytida KXShT tinchlikparvar kuchlari (asosan Rossiya askarlari) Qozog'istonga yuborildi. Bu Rossiyaning mintaqadagi harbiy ta'sirini namoyish etish uchun yaxshi imkoniyat bo'ldi. Rossiya shuningdek Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YII) doirasida ham harbiy hamkorlikni olib boradi. Masalan, 2023-yilda Rossiya Qozog'istonga Su-30SM qiruvchi samolyotlarini yetkazib berdi. Bu hodisa Rossiyaning mintaqaviy harbiy texnologiyalar bozoridagi ustunligini ko'rsatadi¹⁰.

Rossiya Markaziy Osiyo davlatlari bilan muntazam ravishda qo'shma harbiy mashg'ulotlar o'tkazib turadi. 2022-yilda "Samarqand-2022" mashg'ulotlari o'tkazildi, unda Rossiya, O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston kuchlari ishtirok etdi. Mashg'ulotlarning asosiy mavzusi terrorizmga qarshi kurash bo'ldi¹¹. 2023-yilda esa "Markaz-2023" mashg'ulotlari bo'lib o'tdi. Ushbu mashg'ulotlar Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston hududlarida o'tkazilib, KXShT a'zolarining harbiy muvofiqlashuvini sinash maqsadida tashkil etilgan edi¹². Rossiyaning mintaqadagi harbiy ta'sirini tahlil qilganda, uning bir qator kuchli va zaif tomonlarini ko'rish mumkin. Kuchli tomonlariga mintaqadagi eng yirik harbiy mavjudlik, Qirg'iziston

⁹ <https://eurasianet.org/russia-extends-military-base-lease-in-kyrgyzstan>

¹⁰ <https://thediplomat.com/2023/02/russia-delivers-su-30sm-fighters-to-kazakhstan/>

¹¹ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/08/11/military/>

¹² <https://tass.com/defense/1657365>



va Tojikistondagi doimiy bazalar, shuningdek KXShT orqali qonuniy harbiy aralashuv imkoniyatini kiritish mumkin. Biroq, Rossiyaning zaif tomonlari ham mavjud. Xususan, Ukrainadagi urush Rossiyaning harbiy resurslarini sezilarli darajada qisqartirdi. Bundan tashqari, Xitoy va Turkiyaning mintaqaga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Kelajakda Rossiya Afg'onistondagi vaziyatni bahona qilib harbiy mavjudligini yanada kuchaytirishi mumkin. Biroq, Markaziy Osiyo davlatlari ham Rossiyaga qaramlikni kamaytirish uchun Xitoy va G'arb bilan hamkorlikni kengaytirishga intilayotganligini inobatga olish kerak.

Energetika sohasida Rossiyaning ta'siri ayniqsa sezilarli darajada saqlanib qolgan. Qozog'iston va Turkmanistonning tabiiy resurslarini dunyo bozorlariga chiqarishda Rossiya transport tizimlari muhim rol o'ynaydi. "O'rtaliq yo'l" neft quvuri orqali Qozog'iston neftining asosiy qismi Rossiya orqali transport qilinadi. Shuningdek, Rossiya Qirg'iziston va Tojikistonga elektr energiyasi yetkazib berish bo'yicha asosiy hamkor bo'lib qolmoqda. Bu energetika qaramligi Rossiyaga mintaqa davlatlari iqtisodiyotiga ta'sir o'tkazish imkoniyatini beradi. Madaniy va ijtimoiy sohalarda Rossiya "Rus dunyosi" konsepsiyasi orqali o'z ta'sirini saqlab qolishga harakat qilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlarida rus tilining keng qo'llanilishi, ko'plab oliy o'quv yurtlarida rus tili ta'limining davom etishi, shuningdek Rossiyaning ta'lim va madaniyat almashinuvi dasturlari mintaqa aholisi, ayniqsa yoshlar orasida Rossiyaga bo'lgan munosabatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ukraina urushi va G'arb sanksiyalari Rossiyaning Markaziy Osiyo bilan aloqalariga yangi jihatlar qo'shdi. G'arb bozorlaridan mahrum bo'lgan Rossiya kompaniyalari mintaqa bozorlariga qiziqishni oshirmoqda. Qozog'iston va O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi kengaymoqda, turli sanoat sohalarida hamkorlik rivojlanmoqda. Shuningdek, Rossiyada ishlayotgan markaziy osiyolik muhojirlarning pul o'tkazmalari mintaqa iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi, bu esa Ukraina urushi boshlanganidan keyin sezilarli darajada oshgan. Biroq, Rossiyaning mintaqadagi ta'siriga turli to'siqlar ham mavjud. Xitoyning mintaqadagi



iqtisodiy faolligi kuchaygani sari Rossiyaning roli nisbatan pasayishi mumkin. Markaziy Osiyo davlatlarining multisamaraliy diplomatiyasi, ya'ni turli global kuchlar bilan muvozanatli munosabatlar o'rnatishga intilishi Rossiyaning an'anaviy ta'sirini cheklaydi. Bundan tashqari, Ukraina urushi tufayli Rossiyaning harbiy-iqtisodiy resurslarining cheklanganligi uning mintaqaviy imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Kelajakda Rossiyaning mintaqadagi roli bir qator omillarga bog'liq bo'ladi. Afg'onistondagi vaziyatning rivojlanishi, Xitoy-AQSh raqobatining kuchayishi yoki susayishi, shuningdek mintqa davlatlarining ichki siyosiy o'zgarishlari Rossiyaning ta'sir doirasini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, yaqin kelajakda Rossiya Markaziy Osiyoda o'zining an'anaviy ta'sirini saqlab qolish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga harakat qiladi, ayniqsa xavfsizlik va energetika sohalaridagi ustunligini mustahkamlashga intiladi. Xulosa qilib aytganda, Rossiya Markaziy Osiyoda hali ham muhim geosiyosiy o'yinchilardan biri bo'lib qolmoqda. Biroq, global va mintaqaviy sharoitlarning o'zgarishi, yangi raqobatchilar paydo bo'lishi va mintqa davlatlarining mustaqil siyosati Rossiyaning kelajakdagi ta'sirini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Moskva uchun asosiy vazifa - o'zining an'anaviy ustunliklarini saqlab qolish bilan birga, yangi sharoitlarga moslashish va mintaqadagi o'zgarishlardan samarali foydalanish bo'lib qolmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining Rossiyaga nisbatan siyosati turlicha shakllangan bo'lib, har bir davlat o'zining tarixiy, iqtisodiy va geosiyosiy sharoitlariga mos ravishda munosabatni yo'lga qo'ygan. Bu davlatlar bir tomondan Rossiya bilan an'anaviy aloqalarni saqlab qolish, ikkinchi tomondan esa mustaqil tashqi siyosat olib borish orasida nozik muvozanatni saqlashga harakat qilmoqda. Qozog'iston mintaqada Rossiya bilan eng yaqin aloqalarga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Ikkala davlat ham KXShT va Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi a'zosi bo'lib, harbiy va iqtisodiy jihatdan yaqin hamkorlikni olib bormoqda. Qozog'istonning neft va gazini dunyo bozorlariga chiqarishda Rossiya transport tizimlari muhim rol



o'ynaydi. "O'rtaliq yo'l" neft quvuri orqali Qozog'iston neftining katta qismi Rossiya orqali transport qilinadi. Biroq, Nursulton Nazarboyev davridan boshlab Qozog'iston "ko'pvektorli siyosat"ni qo'llab, Xitoy, Yevropa Ittifoqi va AQSH bilan ham yaqin aloqalar o'rnatgan. 2022-yil yanvar oyidagi voqealar paytida Qozog'iston Rossiyadan harbiy yordam so'raganiga qaramay, Kasim-Jomart Tokayev rahbarligida davlat Rossiyaga mutlaq qaram bo'lishdan qochish siyosatini olib bormoqda. O'zbekiston esa Rossiya bilan munosabatlarda ancha ehtiyotkor yondashuvni qo'llaydi. 2012-yilda Islom Karimov rahbarligida O'zbekiston KXShTdan chiqib ketgani, bu davlatning mintaqaviy xavfsizlikdagi mustaqil yo'lini tanlaganligini ko'rsatadi. O'zbekiston hech qanday harbiy bloklarga a'zo bo'lmagan holda neytralitet siyosatini olib bormoqda. Shavkat Mirziyoyev davrida O'zbekiston Xitoy, AQSH va Yevropa Ittifoqi bilan aloqalarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratgan bo'lsa-da, Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarni ham saqlab qolmoqda. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi 9,8 milliard dollarni tashkil etgan, shuningdek, Rossiyada 1,5 milliondan ortiq o'zbekistonlik mehnat muhojirlari ishlaydi. Tojikiston va Qirg'iziston esa mintaqada Rossiyaga eng ko'p bog'liq bo'lgan davlatlar hisoblanadi. Tojikistonda joylashgan 201-harbiy baza Rossiyaning chet eldagi eng yirik harbiy obyektidir. Bu baza mintaqaviy xavfsizlikda muhim rol o'ynaydi. Tojikiston iqtisodiy jihatdan ham Rossiyaga katta bog'liqlikni saqlab qolmoqda - mamlakat yalpi ichki mahsulotining 30% dan ortig'i Rossiyadagi mehnat muhojirlarining pul o'tkazmalaridan keladi. Qish mavsumida esa Tojikiston elektr energiyasining katta qismini Rossiyadan olib keladi. Qirg'iziston ham Rossiyaning mintaqadagi muhim hamkori hisoblanadi. Bishkek yaqinidagi Kant havo bazasi Rossiyaning mintaqaviy harbiy mavjudligining muhim elementidir. Qirg'iziston siyosiy hayotida ham Rossiya ta'siri sezilarli darajada saqlanib qolgan - ko'pchilik siyosiy partiyalar Rossiya bilan aloqalarni mustahkamlash tarafdoridir. Rossiyadagi qirg'izistonlik mehnat muhojirlarining pul o'tkazmalari mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25% atrofini tashkil qiladi.



Umumiy tendentsiya sifatida, Markaziy Osiyo davlatlari Rossiya bilan munosabatlarda quyidagi tamoyillarga amal qilmoqda: birinchidan, hech bir kuchga mutlaq qaram bo'lishdan qochish (multivektorli siyosat); ikkinchidan, Xitoy bilan aloqalarni kengaytirish orqali iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish; uchinchidan, G'arb bilan munosabatlarni diversifikatsiya qilib, texnologiya va investitsiyalarni jalb qilish; to'rtinchidan, mintaqaviy birlikni kuchaytirish orqali mustaqillikni mustahkamlash. Ukraina urushi boshlanganidan keyin mintqa davlatlari Rossiya bilan munosabatlarda yanada ehtiyotkor yondashuvni qo'llamoqda. Bir tomondan, ular rasmiy ravishda neytral pozitsiyani saqlab kelishmoqda, ikkinchi tomondan esa Rossiyaning iqtisodiy va siyosiy izolyatsiyasidan foydalanishga harakat qilmoqda. Kelajakda bu davlatlar Rossiyaga qaramlikni kamaytirish va geosiyosiy muvozanatni saqlash yo'lida harakat qilishda davom etadi. Biroq, Rossiyaning mintaqadagi harbiy mavjudligi, energetika qaramligi va madaniy aloqalar bu jarayonni sekinlashtirishi mumkin.

G'arbning Markaziy Osiyodagi roli: AQSH va Yevropa Ittifoqi.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin AQSH va Yevropa Ittifoqi yangi mustaqil davlatlarda demokratik institutlarni shakllantirishga katta e'tibor berdi. 1990-yillarning boshlarida "demokratiyaga o'tish" dasturlari doirasida yuzlab g'arb mutaxassislari mintaqaga yuborildi. Masalan, 1993-2003 yillarda Qozog'iston va Qirg'izistonda saylov tizimini isloh qilish, mustaqil sud tizimini shakllantirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirildi. USAID hisobotlariga ko'ra, faqat 1990-yillarda Markaziy Osiyo davlatlariga demokratik islohotlar uchun 1,2 milliard dollardan ortiq mablag' ajratilgan. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin AQSH va Yevropa Ittifoqi yangi mustaqil davlatlarda demokratik institutlarni shakllantirishga katta e'tibor berdi. 1990-yillarning boshlarida "demokratiyaga o'tish" dasturlari doirasida yuzlab g'arb mutaxassislari mintaqaga yuborildi. Masalan, 1993-2003 yillarda Qozog'iston va



Qirg'izistonda saylov tizimini isloh qilish, mustaqil sud tizimini shakllantirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirildi. USAID hisobotlariga ko'ra, faqat 1990-yillarda Markaziy Osiyo davlatlariga demokratik islohotlar uchun 1,2 milliard dollardan ortiq mablag' ajratilgan. G'arb xususiy mulk huquqini himoya qilish, davlat korxonalarini xususiylashtirish va erkin bozor mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan keng qamrovli dasturlarni ishlab chiqdi. 1994-yilda Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) Toshkentda vakolatxonasini ochdi, bu esa mintaqada g'arb investitsiyalarining o'sishiga yordam berdi. 1990-yillarning oxiriga kelib, Qozog'iston va Qirg'izistonda yirik neft va gaz konlari xususiy investorlar, asosan Chevron va BP kabi g'arb kompaniyalari qo'lga o'tdi. Biroq, bu jarayon ko'pincha korrupsiya va noaniq huquqiy mexanizmlar tufayli muammoli bo'lib qoldi. 1990-yillarda G'arb mintaqada Rossiyaning eksklyuziv ta'sirini cheklashga harakat qildi. Buning uchun "Shimoliy Kengash" va "Markaziy Osiyo hamkorligi" kabi alternativ mintaqaviy tashkilotlar yaratishga urinishlar bo'ldi. 2001-yilda Afg'onistondagi harbiy operatsiyalar boshlangach, AQSH Qirg'izistondagi Manas aviabazasini va O'zbekistondagi Karshi-Xonobod bazasini ochdi, bu esa Rossiyaning mintaqadagi harbiy monopoliya holatiga zarba berdi. 2000-yillarning boshlarida Yevropa Ittifoqi "Yevropa Markaziy Osiyo strategiyasi"ni qabul qilib, energiya va transport sohasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni rivojlantirishga kirishdi. 2001-yildan boshlab Markaziy Osiyo Afg'onistondagi NATO operatsiyalari uchun muhim tayanchga aylandi. AQSH Tojikiston va O'zbekistonda chegara nazoratini mustahkamlash, narkotik moddalar savdosiga qarshi kurashish va maxsus bo'linmalarni tayyorlash bo'yicha ko'plab dasturlarni moliyalashtirdi. Masalan, 2002-2014 yillarda Qirg'iziston chegara xavfsizligini mustahkamlash uchun 150 million dollardan ortiq mablag' oldi. Biroq, 2014-yilda



Afg'onistondan AQSH qo'shinlarining chiqib ketishi bilan bu dasturlarning ahamiyati sezilarli darajada kamaydi.¹³

2015-yilda AQSH Tashqi ishlar vazirligi tomonidan ishga tushirilgan C5+1 formati (Markaziy Osiyo beshligi + AQSH) mintaqa davlatlari bilan muntazam muloqot va strategik hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun yaratilgan muhim platformaga aylandi. Ushbu tashabbus orqali AQSH Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston) bilan birgalikda mintaqaviy va global muammolarga yechim topishga intilmoqda. Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishining jiddiy ta'siriga uchrayotgan mintaqalardan biri hisoblanadi. C5+1 doirasida Aral dengizi muammosi, suv tanqisligi va qurg'oqchilik kabi masalalar bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Masalan, 2021-yilda AQSH Markaziy Osiyo davlatlariga "Yashil iqtisodiyot" loyihalari uchun 50 million dollar ajratdi, shu jumladan Qozog'iston va O'zbekistonda quyosh energiyasi stansiyalarini qurishga yordam berildi. AQSH mintaqada texnologik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Raqamli Markaziy Osiyo" dasturini ishga tushirdi. 2022-yilda Qirg'iziston va Tojikistonda 5G texnologiyasini joriy etish, shuningdek, O'zbekistonda IT-markazlarni rivojlantirish uchun grantlar taqdim etildi. AQSH kompaniyalari (Microsoft, Google) ham mintaqada o'quv dasturlarini amalga oshirmoqda. Mintaqada ekstremizm va terrorizm xavfi Afg'onistondagi vaziyat tufayli kuchaygan. C5+1 formatida chegara xavfsizligini mustahkamlash, terrorchilik tashkilotlari moliyalashtirishiga qarshi kurash bo'yicha qo'shma mashg'ulotlar o'tkaziladi. 2023-yilda AQSH Markaziy Osiyo davlatlarining maxsus xizmatlariga 30 million dollar miqdorida yordam ajratdi. Tashabbus doirasida Fulbright dasturi kengaytirilib, har yili 1000 ga yaqin markaziy osiyolik talabalarga AQSh universitetlarida tahsil olish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, ayollar huquqlari va gender tengligi sohasida loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan,

¹³ <https://www.silkroadstudies.org/publications/books/new-silk-roads.html>



O'zbekistonda "Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash" dasturi uchun 10 million dollar ajratildi¹⁴.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo bilan aloqalarini tizimli ravishda rivojlantirish maqsadida 2007-yilda birinchi marta "Markaziy Osiyo bo'yicha strategiya"ni qabul qildi. Bu hujjat mintaqada demokratik islohotlar, inson huquqlari va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutgan edi. 2019-yilda esa "Yangi strategik sheriklik" deb nomlangan yangilangan strategiya qabul qilindi. Sud tizimini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga yordam berish. Masalan, 2020-2023 yillarda O'zbekistonda sud islohotlari uchun 15 million yevro ajratildi. YEI mintaqada qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirmoqda. 2022-yilda Qozog'istonda quyosh energiyasi stansiyalari qurish uchun 25 million yevro grant ajratildi. Erasmus+ dasturi doirasida har yili minglab markaziy osiyolik talabalar va professor-o'qituvchilar Yevropa universitetlarida tahsil olish va malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. 2023-yil hisobotlariga ko'ra, dastur doirasida 5,000 dan ortiq grant taqdim etilgan. COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashish maqsadida 2020-2022 yillarda mintaqaga 100 million yevroga yaqin yordam yetkazib berildi. Bu mablag'lar asosan tibbiy uskunalar, vaktsinalar va sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlashga sarflandi. 2023-yilda YEI "Global Gateway" dasturi doirasida Markaziy Osiyoda 10 milliard yevro qiymatidagi loyihalarni e'lon qildi. Ulardan eng muhimi Trans-Kaspiy transport yo'lagi hisoblanadi, u Qozog'iston va Ozarbayjon orqali Yevropa bilan savdo aloqalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Loyiha 2025-yilga kelib yakunlanishi rejalashtirilgan. Afg'onistondagi vaziyat tufayli YEI Tojikiston va O'zbekiston chegaralarini mustahkamlash uchun maxsus dasturlarni moliyalashtirmoqda. 2022-yilda bu maqsadda 20 million yevro ajratildi. Mintaqada ekstremizmga qarshi

¹⁴ <https://www.state.gov/c5101-diplomacy>



kurashish uchun maxsus bo'linmalarni tayyorlash va ularga texnik yordam ko'rsatish dasturlari amalga oshirilmoqda. Masalan, 2023-yilda Qirg'iziston Ichki ishlar vazirligi xodimlari uchun maxsus treninglar o'tkazildi¹⁵.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mackinder, H. J. (1904). The Geographical Pivot of History. The Geographical Journal, 23(4), 421–437. <https://www.jstor.org/stable/1775498>
2. Cooley, A. (2012). Great Games, Local Rules: The New Great Power Contest in Central Asia. Oxford University Press. <https://global.oup.com/academic/product/great-games-local-rules-9780199929825>
3. Cornell, S. E., & Swanström, N. (2006). The Eurasian Drug Trade: A Challenge to Regional Security. Problems of Post-Communism, 53(4), 10-28. <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.2753/PPC1075-8216530402>
4. World Nuclear Association. (2023). Uranium Production Figures. <https://world-nuclear.org/>
5. Encyclopædia Britannica. (n.d.). Sogdiana. <https://www.britannica.com/place/Sogdiana>
6. BP. (2023). Statistical Review of World Energy. <https://www.bp.com/>

¹⁵ https://eeas.europa.eu/headquarters/headquarters-homepage/74664/eu-central-asia-strategy_en